

ALISHER NAVOIY “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA TO‘Y VA BAZMGA
OID TERMINLAR

Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU o'qituvchisi, PhD.**umidaubaydullayeva49@gmail.com*

Annotatsiya: *Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Xamsa”sining uchinchi dostoni bo‘lmish “Layli va Majnun” dostonida o‘z davrining turli ilm-fan, kasb-hunarlariga oid terminlari qo‘llanilgan. Xususan, ijtimoiy, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, hayvonot va o‘simlik dunyosiga oid terminlar, ilmi nujum (astronomiya)ga oid, tibbiy, musiqiy, ma‘dan nomlarini anglatuvchi, ilm-fanga oid, diniy tushunchalarga oid, to‘y va motam marosimlari bilan bog‘liq terminlar va boshqa ko‘plab sohalarga doir bir qancha terminlar asarda mahorat bilan qo‘llanilgan.*

Biz mazkur maqolada ushbu dostonida Navoiy mahorat bilan qo‘llagan to‘y, bazmga oid terminlar xususida fikr yuritamiz. Bu terminlarning ayrimlari hozirgi kunda ham qo‘llanilsa, ba‘zilari butunlay iste‘moldan chiqib, tarixiy so‘zga aylangan, yana bir qismi esa o‘z o‘rnini boshqa bir so‘zga bo‘shatib bergan. Doston matnida qo‘llanilgan to‘y, bazm va musiqa o‘y o‘yinlarining aksariyati ot va fe‘l so‘z turkumiga tegishli ekanini ko‘rish mumkin. Shuningdek, bu terminlarning katta qismi arab va fors tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlardir.

Maqolada tahlilga tortilgan terminlar bilan tanishish Navoiy ijod unmonining bir qatrasini kashf qilishda, shuningdek, terminologiya sohasi tarixi va taraqqiyoti uchun ham manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, termin, terminologiya, to‘y, bazm, musiqa, tarixiy so‘z.*

ТЕРМИНЫ, СВЯЗАННЫЕ СО СВАДЬБОЙ И ВЕЧЕРИНКОЙ В ЭПОСЕ
АЛИШЕРА НАВОИ «ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУНА»

Убайдуллаева Умида Абдушукуровна

*Преподаватель, PhD. СамГУ имени Шарофа Рашидова**umidaubaydullayeva49@gmail.com*

Аннотация: *В эпосе «Лейли и Меджнун», являющемся третьим эпосом великого мыслителя Алишера Навои «Хамса», использовались термины, относящиеся к различным наукам и профессиям его времени. В частности, термины, относящиеся к социальной, политической, военной, экономической жизни, животному и растительному миру, науке, связанной с астрологией (астрономией), медицине, музыке, означающие названия минералов, относящиеся к науке, относящиеся к религиозным понятиям, свадьбе и термины, связанные с трауром. в работе умело используются обряды и несколько терминов, относящихся ко многим другим областям.*

В этой статье мы подумаем о терминах, связанных со свадьбой, вечеринкой, которые Навои умело использовал в этом эпосе. Некоторые из этих терминов используются до сих пор, некоторые полностью вышли из употребления и стали историческими словами, а некоторые уступили место другим словам. Видно, что большинство используемых в тексте эпоса терминов, связанных со свадьбой, гулянием и музыкой, относятся к словесной группе существительных и глаголов. Также большая часть этих терминов заимствована из арабского и персидского языков.

Знакомство с анализируемыми в статье терминами служит источником для открытия пласта творчества Навои, а также для истории и развития терминологической отрасли.

Ключевые слова: Алишер Навои, термин, терминология, свадьба, вечеринка, музыка, историческое слово.

TERMS RELATED TO WEDDING AND PARTY IN ALISHER NAVOI'S EPIC “LEYLI AND MANUN”

Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi

Teacher(PhD) of SamSU named after Sharof Rashidov

umidaubaydullayeva49@gmail.com

Annotation: *In the epic "Layli and Majnun", which is the third epic of the great thinker Alisher Navoi's "Khamasa", terms related to various sciences and professions of his time were used. In particular, terms related to social, political, military, economic, animal and plant life, science related to astrology (astronomy), medical, musical, meaning mineral names, related to science, related to religious concepts, wedding and terms related to mourning rituals and several terms related to many other fields are skillfully used in the work.*

In this article, we will think about the terms related to wedding, party, which Navoi skillfully used in this epic. Some of these terms are still used today, some have completely fallen out of use and become historical words, and some have given way to another word. It can be seen that most of the terms related to wedding, party and music used in the text of the epic belong to the word group of nouns and verbs. Also, most of these terms are borrowed from Arabic and Persian languages.

Acquaintance with the terms analyzed in the article serves as a source for the discovery of a layer of Navoi's creativity, as well as for the history and development of the field of terminology.

Key words: Alisher Navoi, term, terminology, wedding, party, music, historical word.

Alisher Navoiy “Xamsa”sining uchinchi dostoni bo‘lmish “Layli va Majnun” dostonida ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, astronomiya, hayvonot olami, geografiya, adabiyotshunoslik, biologiya, tibbiyot, tikuvchilik, diniy tushunchalar va boshqa shu kabi ko‘plab sohaga doir

terminlar qo'llanilgan. Ushbu maqolada dostonida qo'llanilgan to'y va bazmga aloqador terminlarga murojaat qildik.

Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan 7-bobda Navoiy Husayn Boyqaroni din himoyachisi, sahovatpesha, ilmi qadrlaydigan, adolatli shoh, shuningdek, qanchalik qudratli bo'lsa, shunchalik nozik ko'ngil sohibi sifatida tasvirlaydi hamda ziyofat, bazm; shodlik xursandchilik davrasi; ulfatchilik majlisi ma'nosida forscha bazm so'zini qo'llaydi:

Kim, arsayi bazmi ichra yetsam,

Borini aning nisori etsam. [3,B.37]

Bazm so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham musiqa va o'yinlar bilan o'tkaziladigan ziyofat, to'y, o'tirish; o'yin-kulgu kechasi ma'nosida qo'llanadi [16,B.140]. Navoiy o'yin-kulgu qilinadigan, bazm o'tkaziladigan joy ma'nosida bazmgoh terminidan foydalanadi:

Jannat kibi anda bazmgohe,

Taxt ustida bir xujasta shohe. [3,B.37]

Baytning ma'nosi: Bu manzilda Jannat kabi bazm davom etar, taxtda esa baxtiyor shoh o'tirardi [2,B.25]. Bu so'zdan hozirgi o'zbek adabiy tilida ham xuddi shu ma'noda bazmgoh, bazmxona shakllarida foydalaniladi. Bazmlarda ichiladigan ichimlik – sharob (may) dostonida quyidagi shakllarda uchraydi:

Er majlisi ichra roh erur zeb,

Xotun kishiga saloh erur zeb [3,B.186].

Roh – may, chog'ir [5,B.631]. bu so'z hozirgi o'zbek tilida mavjud emas. Baytning ma'nosi: Erlar majlisining zeb-u ziynati – sharobdir, xotin kishining zeb-u ziynati – pokizalik [2,B.120].

Urg'och mayi ishqning salosi,

Odamg'a yetishsin ibtilosi [3,B.182].

May – sharob, boda [5,B.209]. O'zbek tilining izohli lug'atida may forscha boda, sharob ma'nosini bildirib, uzumdan tayyorlangan ichkilik; musallas, vino ekanligi aytilgan [16,B.527].

Avval qadahingni ayla gardun,

Quyq'il anga bodayi shafaqgun [3,B.281].

Boda – may, sharob, masq qiluvchi ichimlik [4,B.303]. O'zbek tilining izohli lug'atida ham boda (fors,sharob, vino) – may, ichkilik, sharob deyilgan [16,B.294].

Dostonning 8-bobi shahzoda Badiuzzamon ta'rifida bo'lib, shoir shahzodaning saxovati, adolatini go'zal tashbehlar bilan tasvirlaydi. Shahzoda ishtirokidagi bazmlarni ta'riflar ekan, Navoiy yana musiqiy terminlarga murojaat qiladi:

Xunyogar-u nag'masoz Nohid,

Lekin daf aning qo'lida xurshed. [3,B.45]

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'atida xunyogar, nag'masoz, daf so'zlari quyidagicha izohlanadi:

Xunyogar – nola qiluvchi, nolagar; sozanda, xonanda [6,B.431].

Nag'masoz – cholg'uchi, kuylovchi, sozanda [5,B.450]

Daf – childirma, doira [4,B.468].

Xunyogar so'zidan hozirgi o'zbek adabiy tilida foydalanilmaydi. U ifodalagan ma'no sozanda, xonanda so'zlarida mavjud. Nag'masoz so'zi o'rnida esa hozirda shevalarda nag'magar, nag'machi so'zlari qo'llaniladi. O'zbek tilining izohli lug'atida ham nag'masoz so'zi

berilmagan, nag'magar so'zi esa sozamda, musiqachi deb izohlangan [16,B.30]. Daf so'zi ham hozirgi o'zbek tili izohli lug'atida alohida izohlanmagan. Ammo doira so'zining izohida "Aylana shaklidagi gardishsimon urma musiqa asbobi; childirma, daf" deb berilgan [16,B.637]. yuqoridagi baytning ma'nosi: Sozanda-yu xonandalar Nohid sayyorasi bo'lib, uning qo'lidagi doira quyoshdir [2,B.30].

Dostonning 30-31-boblarida Navfalning Majnun dardiga davo bo'lsin, degan maqsadda o'z qizini Majnunga berishga qaror qilgani, to'y marosimi va Navfalning qizi to'ydan keyin boshqa insonni sevishini aytib, Majnunga aka-singil bo'lishni taklif qilgani; Laylini esa Bani Asad qabilasining boshlig'i Ibn Salomga unashtirgani va to'y kuni tunda Ibn Salomning quyanchiq (tutqanoq) kasali qo'zg'ab, behush yiqilgani bayon qilinadi. Alisher Navoiy mazkur boblarda to'y jarayoni bilan bog'liq bir qancha terminlarni ham qo'llaydi. Xususan, to'y xabarini eshitgan Navfal butun qarindosh-urug'ini to'plab, katta to'y boshlagani manzarasi tasviri quyidagicha:

Jashn anjumanin azim qurdi,

Ul xaylni bazm aro tushurdi. [3,B.219]

Bunda jashn so'zi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 1-jildida o'yin-kulgi majlisi, bazm, ziyofat deb berilgan [4,B.568]. "Layli va Majnun" dostonining Vohib Rahmonov muharrirligida tayyorlangan 2020-yilgi nashrida Jashn anjumani birikmasi to'y majlisi deb izohlangan [3,B.333]. Bazm so'zining izohi bilan esa biz yuqorida tanishdik.

O'lturdi xatibi Isoe' joz,

Haq hamd-u sanosin aylab og'oz [3,B.220].

Mazkur baytda xatib so'zi nikoh o'qiydigan imomni bildiradi. Xatib so'ziga Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 3-jildida imom, va'z etuvchi deb ta'rif berilgan [6,B.386]. bu so'zdan hozirgi kunda ham foydalaniladi. O'zbek tilining izohli lug'atida xatib so'zi quyidagicha izohlangan: Xatib - (arab.notiq, voiz, va'zxon; unashtirilgan, kuyov) masjidida juma va hayit nomozi paytida xutba o'qiydigan, va'z aytadigan domla, imom; voiz [16,B.389].

Oy birla quyoshni bog'ladi aqd,

Boshi uza sochtilar, base, naqd [3,B.220].

Aqd- band, bog'lash, tugun; nikoh [4,B.162]. Aqd bog'lamoq - nikoh bog'lamoq, nikoh o'qimoq ma'nosida kelgan. Aqd so'zi bugungi kunda iste'molda mavjud emas. Faqat u ifodalagan ma'no saqlanib qolgan. Baytning ma'nosi: Oy bilan quyoshni, ya'ni kelin bilan kuyovga nikoh o'qidi va ularning boshlaridan kumush va oltinlar sochdilar [2,B.143].

Yana bir bayt:

Chun bo'ldi mahalki, aqdi tazvij

Bergay bu nishot ishiga tarvij [3,B.227]

Aqdi tazvij - birikmasi nihoklash ma'nosini beradi [4,B.162].

Baytning ma'nosi: Nikoh tuzish fursati yetdi, to'y tantanasi yana avjga chiqdi [2,B.148]. Shuningdek, dostonda aqd so'zi bilan birga unga sinonim bo'lgan nikoh so'zi ham qo'llaniladi:

Chun topdi nikoh ishi saranjom,

Layli haramig'a urdilar gom [3,B.228].

Baytning ma'nosi: Nikoh o'qib bo'lingach, Laylining xonasiga yo'l olishdi [2,B.148]. Yana bir bayt:

Emdi budur iltimos-u darxost-

Kim, qilsoq ikov nikoh ishin rost [3,B.151].

Baytning ma'nosi: Ensi iltimosim va talabim shuki, ikkovining nikohini qilib, to'yini o'tkazsak [2,B.97].

To'y marosimi bilan bog'liq muhim so'zlar – kelin hamda kuyov so'zlari dostonida ham shu holatda qo'llanilgan:

Chun mehr kelin kibi yoshundi,

Tun yerga kuyov kibi yukundi [3,B.220].

Baytning ma'nosi: quyosh ham kelinlardek yashirindi, tun ham kuyov kabi yerga yastandi [2,B.143].

Ham Ibni Salom ittifoqi,

Soz ayladi uylanur yaroqi [3,B.227].

Uylanmoq so'zi hozirgi o'zbek tilida ham "biror qiz yoki ayolni o'z nikohiga olmoq, oila qurmoq (er kishi haqida)" ma'nosini bildiradi [16,B.272]. Baytning ma'nosi: Ittifoqo Ibni Salom ham uylanish uchun to'y tadorigini ko'ra boshladi [2,B.147]. Uylanmoq so'zi dostonning XXVII bobida – Majnunning Layliga javob maktubida ham bir necha o'rinlarda qo'llanilgan:

Bo'lg'onda fusun qilurg'a hamdam,

Uylanmak ishin dedi ekin ham [3,B.194].

Uylanmak ishiki, nisbat etding,

Bizga o'z ishingni tuhmat etding [3,B.195].

Shuningdek, Laylining Majnunga bitgan maktubidagi quyidagi baytga e'tibor beraylik:

Chun hajlasi sori ko'z solibsen,

Qo'lmoqqa qizini so'z solibsen [3,B.187].

Qo'lmoq so'zi Navoiy asarlari izohli lug'atida berilmagan. Bayt esa quyidagicha nasriy tabdil qilingan: ...uning bezalgan uyiga ko'z tashlab, qiziga uylanmoqchi bo'lib og'iz solibsan [2,B.121]. Qo'lmoq so'zi uylanmoq deb tabdil qilingan. So'z solmoq birikmasi esa og'iz solmoq iborasiga tenglashtiriladi. Og'iz solmoq iborasi hozirgi o'zbek tilida birovning qizini kelinlikka, yoki o'g'lini kuyovlikka so'ramoq, so'ratmoq degan ma'noni bildiradi [16,B.186].

Dostonida to'y so'zi bilan birga unga ma'nodosh sur so'zi ham qo'llaniladi:

Ul bo'ldi hayotidan chu mahjur,

Motang'a mubaddal o'ldi ul sur [3,B.228].

Sur – to'y, bazm, shodlik yig'ini [6,B.126].

Baytning ma'nosi: Uning hayot shami o'chgandi, to'y azaga aylandi [2,B.148]. Sur so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi.

Mehmon, mezbbon terminlari ham xalqimiz to'y va marosimlari uchun xos bo'lib, dostonida ushbu terminlar deyarli hozirgi holatida qo'llanilgan:

Topib chu bu nav' komronliq,

Yuz mehr ila qildi mizbonliq.

Mehmonlar ani chu ko'rdilar garm,

Fosh ayladilar sharofat-u sharm [3,B.121].

Dostonidan olingan quyidagi baytda ham bir nechta to'y va marosimlar bilan bog'liq terminlar qo'llanilgan:

Ko'z ustida ulcha rasm-u oyin,

Jon o'rtada ulcha aqd-u kobin [3,B.151].

Navoiy asarlari izohli lug'atida rasm so'ziga "qoida, udum, qonun" deya ta'rif berilgan bo'lsa [5,B.606], oyin so'zi "rasm, odat" deya izohlangan [5,B.510]. demak, yuqoridagi baytda juft shaklda qo'llanilgan rasm-u oyin so'zlari urf-odat ma'nosini beradi. Aqd so'zining nikoh ma'nosida qo'llanilganiga yuqoridagi misollar orqali ayon bo'ldi. Kobin so'zi esa mahr; nikoh oldidan kuyov tomonidan kelinga berilishi shart bo'lgan mol, mablag'ni bildiradi [2,B.122]. Hozirda kobin so'zi iste'molda qo'llanilmaydi. Bu so'z bildirgan ma'no hozirda mahr so'ziga yuklatilgan. Demak, baytning ma'nosi quyidagicha: Rasm-odatlarni ko'z ustiga qo'yib, mahriga jonni tiksak [2,B.97].

Bizningcha, visol so'zi ham to'y marosimi bilan bog'liq termin hisoblanadi:

Kim, Ibni Salom etib xayoling,

Balkim, tama' aylabon visoling [3,B.195].

Visol – uchrashuv, birlashuv, erishuv, yaqinlashuv [4,B.373]. O'zbek tilining izohli lug'atida visol so'zining arabcha ekanligi va bog'lanish; sevgi aloqalari; erishuv, yetishuv ma'nolarini bildirishi keltirilgan [16,B.462].

Shunday qilib, o'rganilgan ma'lumotlardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Navoiy asarlarida turli sohalarga doir terminlar qo'llanilgan bo'lib, ularni aniqlash, tahlil qilish, izohlash Navoiy mahoratini tushunish uchun ham, tilshunoslikning terminologiyasi sohasi uchun ham katta yutuq bo'ladi.

2. Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida to'y va bazmga oid bir qancha terminlarni qo'llaydi. Bu terminlarning ayrimlari hozirgi kunda ham qo'llanilsa, ba'zilar butunlay iste'moldan chiqib, tarixiy so'zga aylangan, yana bir qismi esa o'z o'rnini boshqa bir so'zga bo'shatib bergan.

3. "Layli va Majnun" dostonida qo'llanilgan musiqa, to'y va bazmga oid terminlarning aksariyati ot so'z turkumi (zer, mutrib, miyongir, ko's, bazm, bazmgoh, xunyogar, nag'masoz, daf, jashn anjumani, xatib, nikoh, kelin, kuyov, sur, mizbonliq, mehmon, rasm, oyin, kobin, roh, boda, may)ga oid. Shuningdek, bir qismi fe'l so'z turkumi (tarona tuzmoq, aqd bog'lamoq, uylanmoq, qo'lmoq, so'z solmoq)ga oid ekanligi aniqlandi.

4. Badiiy asarda qo'llanilgan terminlarni o'rganish, tadqiq qilish ijodkorning qomusiy bilimlarini aks ettiradi. Shuningdek, sohaga doir terminlarning qadimgi va hozirgi holatini tasavvur qilish, solishtirish, qiyoslash imkonini beradi. Bu esa o'zbek tili terminologiyasi tarixini o'rganishda muhim hisoblanib, terminologiya sohasi kelajagi uchun ham ahamiyatlidir.

Umuman olganda, Navoiy ijodini o'rganish kishiga zavq bag'ishlaydi. Navoiy asarlariga har safar murojaat qilinganida, ijodkorning buyuk dahosini qayta-qayta kashf qilaveramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdushukurov B. Eski turkiy til leksikasi. – Toshkent, 2015.
2. Alisher Navoiy "Layli va Majnun" (nasriy tabdil). -Toshkent, 2021.
3. Alisher Navoiy "Layli va Majnun". -Toshkent, 2020.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1-jild. Toshkent, 1983.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 2-jild. Toshkent, 1983.

6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 3-jild. Toshkent, 1983.
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4-jild. Toshkent, 1983.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-tom. – Toshkent, 1993.
9. D.Yusupova “Layli va Majnun” dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. kh-davron.uz
10. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv-uslubiy majmua. – T.:2019. -B.117.
11. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi.-Toshkent, 2019.
12. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. 1996.
13. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Toshkent: Fan, 2002.
14. Jovliyeva J. Terminologiya masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili. //Science and education// – T.:2020. -B.451.
15. Mavlonov A. “Saddi Iskandariy” dostonida qo'llanilgan harbiy terminlar tahlili. Til, ta'lim, tarjima. T.2021.2-son, 4-jild, -B.52.
16. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent, 2007.
17. Rajabova B. Navoiy ijodida tarixiy-huquqiy atamalar. Ziyouz.uz. 2016.